

47. Nuqtalarning birgalikdagi harakati

Yondosh mavzu:
jismoniy tarbiya darsi.

Sonli nur, koordinata,
tezlik, vaqt, masofa.



1. To'g'ri tengliklarni toping va jismoniy tarbiya so'zi qanday qadimgi yunon so'zidan olinganligini aniqlang.

P $500 \text{ cm}^2 = 5 \text{ dm}^2$

O $128 \text{ l} + 45 \text{ l} = 163 \text{ l}$

R $1 \text{ h } 35 \text{ min} = 95 \text{ min}$

I $800 \text{ m}^2 : 100 = 800 \text{ dm}^2$

K $1 \text{ kg } 28 \text{ g} = 128 \text{ g}$

R $80 : 9 = 8 \text{ (oct. 8)}$

U $172 \text{ m} = 1 \text{ m } 72 \text{ dm}$

O $193 \text{ cm} = 1 \text{ m } 9 \text{ dm } 3 \text{ cm}$

D $2 \cdot 17 \cdot 25 \cdot 4 = 3400$


A $54 \text{ dm}^3 = 54000 \text{ cm}^3$

2. Futbol o'yini paytida ikki futbolchi bir-biriga qarab yugurdi. Quyidagilarni aniqlang:

a) har bir futbolchi dastlab qaysi nuqtada turibdi?

b) ularning har biri qanday tezlik bilan yugurdi?

d) ularning har biri 1 sekundda qancha masofani bosib o'tdi?
2 sekundda-chi? 3 sekundda-chi.




Odatda, bir nechta obyektlar: odamlar, mashinalar va hayvonlarning bir vaqtdagi harakatlanishi bitta sxemada ko'rsatiladi. Bu sxema bilan nafaqat obyektlarning o'rnini topish balki ularning uchrashish yoki uchrashmasligini ham aniqlash mumkin.

47. Nuqtalarning birgalikdagi harakati



3. Daftaringizga sxema uchun jadval tuzing. Savollarga javob bering.




t	0	1	2	3	4
x_1	12				
x_2	18				

- Dastlab yuguruvchilar bir-biridan qanday masofada bo'lgan?
- Aziza qancha masofaga yugurdi?
- Salim qancha masofaga yugurdi?
- 1 sekunddan keyin ularning orasida qancha masofa qoldi? 2 sekunddan keyin-chi? Bu savollarga javob topishda ushbu jadval qanday yordam beradi?



4. Sxemani o'rganing. Daftaringizga jadval tuzing. O'ylab ko'ring, Komila Akmalni quvib o'ta oladimi? Bunda jadval sizga qanday yordam beradi?



t, h	0	1	2	3	4	5	6
x_1	15						
x_2	90						

- Dastlab velosipedchilar bir-biridan qanday masofada bo'lgan?
- 1 soatdan keyin ular bir-biridan qanday masofada bo'ladi? 2 soatdan keyin-chi?
- Ularining orasidagi masofa qanday o'zgaradi? Necha km/h?



5. Daftaringizga koordinata nurini chizing va unda yuqoridagi velosipedchilarning o'rnini almashtiring: oldinda Komila A(30) nuqtadan, Akmal esa uning ortidan O(0) nuqtadan yo'lga chiqsin. Nima deb o'ylaysiz, Akmal Komilani quvib o'ta oladimi? Bu necha soatdan keyin sodir bo'ladi?

47. Nuqtalarning birgalikdagi harakati



6. O'quvchilar jismoniy tarbiya darsida o'zlarining chidamliligini, kuchini va chaqqonligini baholashga yordam beradigan me'yoriy topshiriqlarni bajaradilar.

Ifodalarni hisoblang va 4-sinf o'quvchilari uchun arqon bilan sakrash topshirig'ining me'yori qanchaligini bilib oling.

a) Qizlar:

$$(430 + 4 \cdot 5 \cdot 10) : 9 \text{ dan } 2 \cdot (729 : 27 - 18) \cdot 5 \text{ gacha.}$$

b) O'g'il bolalar:

$$((75 + 63) \cdot 2 - 36) : 4 \text{ dan } 4000 : (2 \cdot 8 \cdot 7 - 62) \text{ gacha.}$$



7. Velosipedchi 5 soatda 110 km, yuguruvchi esa 4 soatda 56 km masofani bosib o'tdi. Velosipedchining tezligi yuguruvchining tezligidan qanchaga ko'p?



8. To'g'ri tenglikda biz bir xil sonlarni bir xil harflar bilan, har xil sonlarni har xil harflar bilan almashtirdik.

Natijada,  +  +  +  +  +  +  +  =   hosil bo'ldi.
A nimaga teng?



9. Akmal murakkab ifodani hisobladi


$$(164\,958 : 57 \cdot 36 + 174 \cdot 170) - 438\,900 : 30$$

natijada, 119 135 hosil bo'ldi.

Akmal to'g'ri hisobladimi?



10. Aziza Salim bilan birga "Kimo'zar" o'yinini o'ynadi. Daftaringizga ularning harakatini ifodalovchi koordinata nurini chizing. Har bir o'yinchi qanday tezlikda yugurayotganligini aniqlang. Jadvalni qayta chizing va uni to'ldiring.



t, h	0	1	2	3	4
x_1					
x_2					